

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/12.02.2025.Ped.167.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AXROROV IXTIYOR DONIYOROVICH

**JADID MA'RIFATPARVARLARINING YANGI USUL MAKTABLARIDA
O'QUV-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI**

13.00.01-Pedagogika nazaryasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

UO‘K:_____

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Axrorov Ixtiyor Doniyorovich

Jadid ma’rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o‘quv-tarbiya jarayonini
tashkil etishning pedagogik asoslari.....5

Ахроров Ихтиёр Дониёрович

Педагогические основы организации учебно-воспитательного процесса в
новометодических школах джадидов просветителей.....

Axrorov Ixtiyor Doniyorovich

Pedagogical foundations of organizing the educational process in new-method
schools of modern educators

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

AXROROV IXTIYOR DONIYOROVICH

**JADID MA'RIFATPARVARLARINING YANGI USUL MAKTABLARIDA
O'QUV-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI**

13.00.01-Pedagogika nazaryasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped3954 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (<http://buxdpi.uz>) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umurov Zarif Latifboyevich,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Adizov Baxtiyor Rahmonovich,
pedagogika fanlari doktori, professor

Olimov Temir Hasanovich,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/12.02.2025.Ped.167.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025- yil « ____ » soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 2-uy.) Tel.: (99865) 226-10-96; faks: (99865) 226-10-96; e-mail: buxdpi@buxdpi.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200100, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 2-uy, tel.: (99865) 226-10-96.

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil « ____ » kuni tarqatildi.

(2025- yil « ____ » dagi ____ - raqamli reestr bayonnomasi).



B.B.Ma'murov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d.(DSc), professor

G.R.Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), professor

Sh.Sh.Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Jahonda yosh avlodni tarbiyalashda jadidlar maktabi va ularning ma'naviy merosini tadqiq qilish, dunyo talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlash, yoshlarni ilm-ma'rifatga boshlashga xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib hozirgi ilm-fan rivojiga ham salmoqli hissasini qo'shmoqda. Jadid ma'rifatparvarlari namoyandalarning yangi usul maktablar ochib, o'quv-tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashda harakat qilganliklari ta'lim tizimining rivojlanishiga, jamiyatning madaniy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan. Jadidlar tomonidan ta'lim usullari zamonaviylashtirilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi ilm-fanning rivojlanishi, savodxonlik darajasining o'sishi va jamiyatning madaniy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini yaratish, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, uzviylikni ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish, ko'p komponentli yondashuvlarni rag'batlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada YUNESKO, IIEP (International Institute for Educational Planning), UNICEF Education Section, World Bank Education Global Practice, OECD (Education and Skills Directorate), Islamic Educational, ICESCO (Scientific and Cultural Organization) xalqaro tashkilotlar ta'limning tarixiy va madaniy asoslarini o'rganish, zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'lida faol tadqiqotlar olib bormoqda. Ayniqsa, Türk Tarih Kurumu, Ankara Üniversitesi Türk İnkılap Tarihi Enstitüsü, İstanbul Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü, Marmara Üniversitesi Orta Asya ve Kafkasya Araştırmaları Enstitüsü, Avrasya Stratejik Araştırmalar Merkezi kabi ilmiy markazlarda jadid ma'rifatparvarlari tarixi, yangi maktablar va darsliklarning ahamiyatini o'rganib, bugungi kun ta'lim tizimiga tatbiq etib kelmoqda. Mazkur tadqiqotlarda jadid maktablari o'quv-tarbiya jarayonini o'rganish, jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'qitish jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslarini dolzarb muammo sifatida tadqiq etilmoqda.

Mamlakatimizda jadidlarning ta'lim-tarbiyaga oid meroslarini o'rganish – bugungi kunda yangi avlodni ma'rifatparvarlik, barkamol shaxs etib tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Jumladan, “Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini shuncha ko'p anglab yetadi”¹. Shu bois, yoshlarni zamon talablari asosida o'qitishning yaqin o'tmishini birlamchi manbalar asosida chuqur o'rganish va tadqiq etish, pedagogik meros, ma'naviy qadriyatlardan hozirgi globallashtirish sharoitida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, ma'naviy yuksalishda, milliy tarbiyashunoslikda foydalanish har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 497 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 8-oktabrdagi F-5598-son "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi: Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Respublikamiz olimlari tomonidan jadidlar harakati va jadid maktablarida o'qitishning yangi usullari hamda muammoning falsafiy va adabiyotshunoslikdagi ahamiyati xususida tadqiqot olib borilgan. Jumladan, R.G'.Safarova, M.Rixsiyeva, Sh.E.Ne'matov, M.E.Inoyatova, O.Ahmadov, U.Dolimov, D.H.Ziyayeva, N.Yo'ldashev, N.Naimov, Q.Rajabov, B.Qosimov²larning izlanishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan K.E.Bendrikov, S.M.Gramenitskiy, Elen Karrer, Anke Fon Kyugelgan, S.N.Tolstov,

² Сафарова Р., Рихсиева М. Умумий ўрта таълим мактаблари дарсликларининг янги авлодига қўйиладиган талаблар: Дарслик яратувчи муаллифлар учун қўлланма. –Тошкент: 2001. –28 б.; Неъматов Ш. Э. Туркистонда дарсликлар яратишнинг тарихий йўли ва уларнинг дидактик асослари (Пед.фан.номз.диссерт). Тошкент, 2009.–162 б.; Иноятлова М. Э. Ўзбек алифбе дарсликларининг тарихий тараққиёт босқичлари ва дидактик асослари (Пед.фан.номз.диссерт). Тошкент, 2006.–185 б.; Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari.–Т.: О'qituvchi, 1990.; Ahmadov O.Sh. XIX asr oxiri - XX asr 30 - yillarida Buxoro jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik fikrlar taraqqiyoti pedagogika fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Buxoro, 2025. -26 б.; Долимов У. Жаҳид педагогикаси" монография.–Тошкент, 2007. –151 б.; Долимов У. "Туркистонда жаҳид мактаблари".–Т.: Университет, 2006. –126 б.; Ziyayeva D. H. O'zbekiston hududida tabiiy fanlar yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot va ekspeditsiyalar (XIX asr -XX asr boshlari).– Т.: Akademnashr, 2019. – 416 б.; Йўлдашев Н. Абдурауф Фитранинг "Рахбари нажот" (Кутқарув йўли) асаридан мухтасар фасллар.– Бухоро, 1996. –77 б.; Нусратилло Нaimov. Маърифатга бахшида умр (Тарихий қисса). – Бухоро.: Дурдона нашриёти, 2018. –236 б.; Naimov Nusratillo. So'ngi hukmdor (Tarixiy qissa).–Buxoro. "Buxoro" nashiryoti, 2008. –170 б.; Ражабов Қ. Туркистон тарихи (ўқув қўлланма).–Т.: Университет, 2003.–168 б.;

N.Arxangelskiy, N.Diktorova³larning tadqiqotlari jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan.

Xorijlik tadqiqotchilardan Ahmad Zakiy Validiy To'g'on, S.A.Jenkovskiy, Xisao Komatsu, A. Khalid, T.Kocaoğlu⁴larning tadqiqotlarida jadid maktablaridagi o'qitish tizimi o'rganilgan.

Olib borilgan kuzatishlarimiz va o'rganilgan manbalarga tayanib, shu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarning tahlili mazkur muammoning nazariy va eksperimental jihatdan yetarli o'rganilmaganligini ko'rsatadi. Bundan kelib chiqib jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari monografik tadqiqot siatida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: Ushbu dissertatsiya ishi Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrasining "Barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ajdodlar merosidan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari (2022-2025 – y.y.)" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslarini tasniflash va undan foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jadidlar tomonidan ta'lim tizimini tubdan isloh qilish uchun faoliyat boshlashlariga daxldor sabablarni aniqlashtirish;

jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning tarbiyaviy omillarini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish;

jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'qitish jarayonini tashkil etishda ta'lim-tarbiya tamoyillarining mutanosibligni aniqlashtirish;

jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida qo'llanilgan o'qitish metodlarini tavsiflash va ajdodlar merosining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini umumlashtirish.

³ Bendrikov K.E. "Ocherki istorii narodnogo obrazavanie v Turkistane".—Moskva izd-po. RSFSR, 1960.—569 b.; Gramenitskiy S.M. "Diskussiya o novometodnix maktabax".—Toshkent,1909.—25 b.; Elen Karrer. "Yashirin jamiyatlar davri"(1910-1914).—Nukus. O'zbek tili va adabiyoti, 1994.—№1-2. 60-65.; Anke Fon Kyugelgen. "Ligitimatatsiya sredniyaziatskiy dinastii mangitoye v proizvedeniye ix istochnikov(XVIII-XIXv.v.).—Amati, 2004.—516 b.; Tolstov S.N. "Istoriya,etnografiya,arxeologiya iz Sredniy Azii" (stati sbornik).—Moskva,Nauka. 1968.—167 b.; Arxangelskiy N., Diktorova N. "Yetti yillik maktabda ona tilining ta'lim va tarbiya programmasi".—T.:Turkiston davlat nashriyoti, 1922. —12 b.

⁴Zeki Velidi Togan. Bugunki Turkili (Turkiston) va yaqin Tarixi. Paolo Sartori Altro Che Sheta. Covano ye progresso in Turkestan (1865-1917). —Prato, 2003. —158 p. Istanbul. 1981. —354 v.; Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Бўлинггани бўри ер (Туркистон халқларини миллий мустақиллик учун кураши тарихидан) хотиралар — Т.:Адолат; 1997. — 280 б.; Jenkovsky S.A. Pan Turcism and islam in Russia. Cambrige, Massachusttes: Harulard Universitu Press. 1967. 88 p.; Komatsu X. 20. yūzyıl baslarında Orta Asya'da Türkçülük ve devrim hareketleri. — Turhan Kitabevi Yayınları, 1993.; Khalid A. The politics of Muslim cultmal refomi: jadidism in Central Asia-Beilteley - Los Angeles - London: University of California Press, 1998.—336 p.; Printing, publishing and reform in Tsarist Central Asia // International Journal of MiddleEast Studies.—1994.—No 2.- Vol. —26 P. 187-200; Osman Khoja And The Beginnings Of Jadidism hi Bukhara // Refomi Movements and Revolutions in Turkistan: 1900-1924. Studies in Honour of Osman Khoja / Edited by T.Kocaoğlu.- Haarlem-Ankara: SOTA 2001.—287-296S.; Kocaoğlu T. Türkistan'da Yenilik hareketleri ve İhtilaller: 1900-1924. SOTA. Haarlem. — 2001.

Tadqiqotning obyekti sifatida jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish jarayoni bo'lib, Buxoro davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universiteti, Navoiy davlat universitetidan 584 nafar talabalar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonining pedagogik shart-sharoitlari, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan adabiyotlar tahlili, mantiqiy qiyosiy tahlil, tarixiy, xronologik yondashuv, davriylik, analiz va sintez, kuzatish, umumlashtirish, anketa-so'rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilm-ma'rifatda ilg'or tajribalari, sinf-dars tizimi, yangi usul darsliklari reglamentini tatbiq etish va ta'lim tizimini isloh qilishga doir faoliyati, jadid ma'rifatparvarlarining maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish vositasi dunyoviy bilimlar o'qitilish jarayonlari aniqlashtirilgan;

rus-tuzem maktablari, yangi usul maktablari, gimnaziya, o'quv bilim yurtlari kabi ta'lim muassasalarida dasturlar muvofiqlashtirilib, jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish mazmuni, o'qitish tizimini modernizatsiyalash asosida yangicha tizimning afzalliklari dalillangan;

jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida, tarbiyada an'anaviylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirish hamda zamonaviy ta'lim tizimiga jadidlarning ilg'or g'oyalarini integratsiyalash modeli takomillashtirilgan;

progressiv jadidlar ta'limoti, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda ma'rifatni shakllantirish sifatleri, ta'lim-tarbiyaga oid tamoyillari (onglililik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va izchillik) asosida ma'naviy tarbiyani oshirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish orqali ilmiy-metodik ta'minot takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida "Jadidlar pedagogikasi" nomli tanlov fan tashkil etilib, o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etilgan;

jadid maktablarida o'quv-tarbiya jarayoni va undagi o'qitish tarixi bilan bog'liq bo'lgan "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi" nomli o'quv qo'llanma nashr tilgan;

yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitish tizimiga oid "Matematika va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmaning "Matematika o'qitish tarixi" bo'limini tayyorlashda foydalanilgan;

jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish mazmuni bilan bog'liq "Jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishi" nomli dasturiy ta'lim vositasi uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzaridagi intellektual mulk agentligidan guvohnoma olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv, tadqiqot maqsadi, predmeti hamda pedagogik vazifalar mohiyatiga muvofiq tadqiqot metodlarining tanlanganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan talabalar miqdorining belgilangan talablarga mosligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarining statistik ma'lumotlarga asoslanganligi va matematik-statistik metodlardan foydalanib qayta ishlanganligi, tahliliy materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi, dissertatsiya mazmunining respublika va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda ilmiy anjumanlardagi ma'ruza materiallarining tezislari orqali ommalashtirilganligida o'z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqotning ilmiy ahamiyati jadid maktablarida o'quv-tarbiya jarayonining pedagogik imkoniyatlari o'rganilganligi, ta'lim dasturlari, o'qitishning shakl, metod va vositalari hamda jadid maktablarida o'quv-tarbiya jarayonining qiyosiy tahlili, ushbu sohada to'plangan yutuqlar va pedagogik tajribani umumlashtirgan holda "Jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishi" nomli dasturiy ta'lim vositasida hozirgi davr bilan bog'liq tavsiya va takliflar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida "Jadidlar pedagogikasi" nomli tanlov fan o'qitilishi yo'lga qo'yilib, jadid maktablarida o'quv-tarbiya jarayoni pedagogik imkoniyatlariga oid yondashuvlar, tarixiy-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilib, boyitilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, malaka oshirish kurslari tinglovchilari hamda ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistrleri faoliyatida hamda darsliklar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ilm-ma'rifatda ilg'or tajribalari, sinf-dars tizimi, yangi usul darsliklari reglamentini tatbiq etish, jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish vositasi dunyoviy bilimlar o'qitilishini ta'minlagan bo'lib, ilm-ma'rifatda ilg'or tajribalar (sinf-dars tizimi, yangi usul darsliklari, reglament)ni tatbiq etish va ta'lim tizimini isloh qilishga oid tavsiyalar va ilmiy natijalaridan Buxoro davlat universitetida bajarilgan "PZ-202005236-raqamli "Oila psixologiyasi fanidan multimediya mahsulotini yaratish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2025-yil 2-iyundagi 02/3625-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratilgan;

rus-tuzem maktablari, yangi usul maktablari, gimnaziya, o'quv bilim yurtlari kabi ta'lim muassasalarida dasturlar muvofiqlashtirilib, jadid ma'rifatparvarlarining

yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish mazmuni rus-tuzem maktablari, yangi usul maktablari, gimnaziya, o'quv bilim yurtlari kabi ta'lim muassasalarida dasturlar muvofiqlashtirilib, o'qitish tizimini modernizatsiyalashga doir taklif va tavsiyalardan "Matematika va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmaning "Matematika o'qitish tarixi" bo'limini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-son buyrug'i. Guvohnoma raqami № 855557). Natijada, jadid ma'rifatparvarlarining ma'naviy merosini o'rganish natijasida talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishga erishilgan;

jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida, tarbiyada an'anaviylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirish, jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish modeli tarbiyada an'anaviylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirish hamda zamonaviy ta'lim tizimiga jadidlarning ilg'or g'oyalari (qobiliyatli yoshlarni xorijga o'qishga yuborish, yoshlarning ma'naviy-axloqiy yuksalishini ta'minlovchi gazeta, jurnallar, darsliklar chop etish)ni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga oid tavsiyalardan Buxoro davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universiteti, Navoiy pedagogika universiteti, 60110400-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq qilingan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 23-iyuldagi 02/01-01-292-son ma'lumotnomasi). Natijada, jadidlarning ilg'or g'oya va qarashlaridan "Jadidlar pedagogikasi" nomli o'quv metodik qo'llanma mazmunini boyitish orqali talabalarni o'qitishning samaradorligi va sifatini oshirishga erishilgan;

progressiv jadidlar ta'limoti, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda ma'rifatni shakllantirish sifatlari, ta'lim-tarbiyaga oid tamoyillari (onglililik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va izchillik) asosida yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda ma'rifatni shakllantirish sifatlari (iymon-e'tiqodli, sabr-bardoshli, irodali, mard, matonatli, vijdonli, do'stlik, rostgo'ylik, ustozga hurmat), ta'lim-tarbiyaga oid tamoyillari (onglililik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va izchillik, nazariya va amaliyotning bo'g'likligi) asosida ma'naviy tarbiyani takomillashtirishga oid ma'lumotlarga bag'ishlangan dissertatsiyasi natijalaridan O'zbekiston Respublikasi teleradiokompaniyasining Buxoro viloyat bo'limining "Moziy bisotidan", "Asrlarning asraganlari", "Assalom Buxoro" ko'rsatuvlari senariysini tuzishda foydalanilgan hamda davra suhbatlari va muloqotlar uyushtirilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023- yil 29-avgustdagi 02-09-225-son ma'lumotnomasi). Natijada, jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga doir qarashlarining umumbashariy qasriyatlar sirasiga daxldor o'rni va ahamiyati targ'ib qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy-uslubiy ish e'lon qilingan bo'lib, jumladan, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va

innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiya natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 11 ta maqola, 4 tasi xorijiy hamda 7 tasi respublika ilmiy jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat bo'lib, asosiy matn 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalarining ishonchligi asoslangan hamda nazariy-amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatatsiyasi, ilmiy amaliy natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning nazariy asoslari”** deb nomlangan. Bunda jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning mazmuni, jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish evolyutsiyasi, yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonining matbuotda yoritilishi xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Mazkur bobning **“Jadid ma'rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning mazmuni”** nomli paragrafida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim hamda Tataristonda tashkil etilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat – jadid ma'rifatparvarlari alohida ahamiyatga ega. Jadid ma'rifatparvarlari o'lkada ta'lim-tarbiya tizimini yaxshilash hamda yoshlarga dunyoviy fanlarni o'qitish masalalariga e'tibor qaratgan. Chunonchi, ular maktab va madrasalarda yoshlarga arab, fors va rus tili, tibbiyot, arifmetika kabi fanlarni o'qitish zarurligi g'oyasini o'zlarining e'lon qilingan maqola va asarlarida ilgari surgan.

Jadid ma'rifatparvarlari bir qator ustuvor yo'nalishlarni nazarda tutgan. Jumladan, o'lkada yangi usul maktablarini tashkil etish; qobiliyatli yoshlarni xorijga o'qishga yuborish; yoshlarning ma'naviy-axloqiy yuksalishini ta'minlovchi turli ma'rifiy yo'nalishda teatr truppalari tuzish; gazeta, jurnallar va darsliklar chop etish; xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini yuksaltirish kabi vazifalar belgilanib, amalga oshirish rejalari tuzilgan.

Jadid ma'rifatparvarlari ta'limoti progressiv ta'limot bo'lib, u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki ilg'or fikrlovchi yoshlarni hamda barcha ziyolilarni ergashtirishga harakat qilgan.

Jadid ma'rifatparvarlari ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasidagi amalga oshirilgan ishlari natijasida ular tomonidan tashkil etilgan maktablarning soni o'sib

borgan. Buni quyidagi dalillarda ko‘rish mumkin: “1908-yil Turkiston o‘lkasida 30 ta, 1911-yilda esa 63 ta jadid maktabi tashkil etilgan⁵”.

Bobning “Jadid ma’rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish evolyutsiyasi” nomli ikkinchi paragrafida jadid maktablarining o‘ziga xosligi, bu maktablarda milliy va islomiy ta’limotlarning o‘qitilishi hamda Yevropa ta’lim uslublarini o‘zida aks ettirganligi to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan.

Jadid maktablarida o‘qitishdan maqsad o‘quvchilarga dunyoviy ta’lim berish, til o‘rgatish hamda o‘quvchilarning ijtimoiy-siyosiy madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Ular o‘qitish jarayonida tabiiy va ijtimoiy fanlarga alohida e’tibor qaratgan. Bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga va zamonaviy bilimga ega bo‘lishiga yordam bergan. Jadidlar yoshlarga ilm-fanni o‘zlashtirish, shaxsni barkamol qilib tarbiyalash, yangiliklar yaratishga intilish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga harakat qilgan. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha jadid ma’rifatparvari Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘lining pedagogik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy merosi aks etgan asarlarda kuzatish mumkin.

Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li usuli jadid maktablari muallimlari uchun maxsus yo‘riqnoma ishlab chiqqan. Bular:


1. 8-10 yoshga to‘lgan bola maktabga qabul qilinishi belgilangan.
3. Muallimlar o‘quvchilarning ismi – sharifi yozilgan maxsus daftar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etgan.
5. Dars ma’lum reja asosida o‘tkazilgan.
6. Muallimning ruxsatisiz dars qoldirmaslik qat’iy talab sosida belgilab qo‘yilgan.
7. Mashg‘ulotlarning davomiyligi o‘rtasida o‘n daqiqalik tanaffus bo‘lishi qayd qilingan.
9. Uch soatlik darsdan keyin bir soatlik tanaffus berilgan.
10. Muallim bolalar tarbiyasi va axloqiga alohida e’tibor qaratgan.
11. O‘quvchilarga jismoniy jazo berish, so‘kish qat’iyan man etilgan.
12. Maktabda o‘qitiladigan darslar diyonat, axloq, insonparvarlik, ota-onaga hurmat, do‘stlik, vatanparvarlik doirasida bo‘lishi talab etilgan⁶.

Jadid maktablarida fanlarni o‘qitish metodikasi Yevropa ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalarga tayangan holda matematika va tabiiy fanlar zamonaviy o‘qitish metodlari asosida o‘rgatilgan. Bu sohada o‘quvchilarni nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashga e’tibor qaratilgan.

“Usuli jadid” maktablarining tashkil etilishi bilan eski o‘qitish usullarini tubdan yangilash, yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish va shu metodlar asosida darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarini yaratish jadid pedagogikasining eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarining yagona o‘quv rejasi, dasturi va darsliklari bo‘lmagan, muallimlar o‘zi tanlab olgan kitoblarni ishlatishgan (1- rasmga qarang).

⁵ ЎЗР МДА 2412-жамғарма, 1-рўйхат, 365-иш, 39-варақ

⁶ Мўминжон Муҳаммаджон ўғли. Насойихул атфол. –Тошкент. Н. Й. Яковлев тине литографиси. 1332 (1914) йил.



1-rasm. Jadid maktablarida ta'lim tizimi

Bobning “Yangi usul maktablarida o'quv-tarbiya jarayonining matbuotda yoritilishi” deb nomlangan uchinchi paragrafida jadid maktablarida qo'llangan darsliklar, darsliklarning didaktik tuzilishi, o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va uning mahalliy matbuotda yoritilishi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

XX asr boshlarida jadid ma'rifatparvarlari Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo'qon shaharlarida faol harakat olib borgan. Jumladan, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Buxoroda Sadridin Ayniy, Fitrat, Usmonxo'ja, Qo'qonda Ashurali Zohiriy, Mahmudjon Obidovlar jadid ma'rifatparvarlarining namoyondalari hisoblanadi.

O'zbekistonda milliy matbuotning tug'ilish, shakllanish va rivojlanish tarixi yuz yildan ziyodroq vaqtni o'z ichiga oladi. XX asr boshlarida, aniqroq aytganda, 1906-yilda dunyo yuzini ko'rgan “Taraqqiy” milliy o'zbek matbuotining qaldirg'och gazetasi bo'lgan bo'lsa, undan keyin 1917-yilga qadar 10 ta gazeta va jurnal nashr etild (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Jadidlar tomonidan nash etilgan gazetalar

№	Muallif	Nashr nomi	Yili	Izoh
1.	Ismoil Obidiy	Taraqqiy	1906	Dastlabki jadid nashrlaridan
2.	Munavvarqori Abdurashidxonov	Xurshid	1906	Ilmiy-ma'rifiy yo'nalishda
3.	Abdulla Avloniy	Shuhrat	1907	Ma'rifiy-madaniy nashr

4.	Ahmadjon Bektemirov	Osiyo	1908	Islom va taraqqiyot g'oyalari
5.	Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev	Sadoi Turkiston	1914–1915	Turkistondagi milliy uyg'onish aks ettirilgan
6.	Shohmuhammadzoda	Hurriyat	1917 (aprel)	Inqilobiy g'oyalar aks etgan
7.	Munavvarqori Abdurashidxonov	Najot	1917 (mart)	Jadidlar g'oyaviy yetakchiligi
8.	Abdulla Avloniy	Turon	1917	Milliy-demokratik davlatchilik g'oyalari

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan “Sadoi Turkiston” gazetasi o'lkada hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va maishiy mavzular yoritilgan. Gazeta ta'lim-tarbiya masalalariga, maktab va madrasalarda o'qitish tizimiga alohida ahamiyat bergan.

“Sadoi Turkiston”ning birinchi va ikkinchi sonlarida “Maktab do'sti” imzosi ostida chop etilgan “Turkiston maktablari” nomli maqolada, o'lkadagi maktablarning ahvoli, ular millat yoshlarining kelajagi nuqtayi nazaridan zamon talablariga qanchalik javob bera olish masalasi muhokama qilingan. “Qaysi millatning maktabi tartib va nizomli bo'lsa, ul millatning istiqboli umidli va dunyoda yashamakka iste'dod va qobiliyatli sanalur. Agarda tartibsiz va nizomsiz bo'lsa, istiqboli ham qo'rqunchli va milliy qavmlar qoshida e'tiborsiz, xor zalil hisob o'linur”⁷, - deya xulosa qilib o'tadi. Gazeta mahalliy xalq bolalari o'qiydigan maktablarni doimiy ravishda rivojlantirishga qaratilgan izchil faoliyatni amalga oshirgan. “Sadoi Turkiston” gazetasi Turkistonning kelajagini ma'rifatli avlod qo'lida, deb hisobladi va bu yo'lda muallimlarning fidokorona mehnatlariga alohida o'rin ajratdi. Jumladan, Buxorolik Mirzozoda “Ilm va maorif” nomli maqolasida millat kelajagi maktabda va maorifdadir, unga dushmanlik esa millatga dushmanlikdir, degan xulosaga kelgan”⁸. O'zgandlik muallim R.Halimboyzodaning “Muallimlar ila xalq orasidagi munosabat” (42-son) sarlavhali maqolasida xalq muallimlarga e'tibor berishi, ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlashi lozimligi haqida so'z yuritgan.

M.Rasuliyning “Bizda o'quv va o'qituv” nomli maqolasida Turkistonda jadid maktablari va undagi o'qituvchilarning ahvolini qalamga oladi”⁹. Muallimlarning o'zlariga bolalar tarbiyasi fani o'qitilsin, deya taklif kiritgan.

Karim Norbek o'g'li o'zining “Bizim yoshlarga milliy tarbiya” maqolasida (43-son) ta'lim va tarbiya masalalariga e'tibor qaratgan. “Sadoi Turkiston” gazetasi qisqa vaqt faoliyat yuritganiga qaramay, o'z nomi bilan tom ma'noda butun Turkiston xalqlari uchun fikr almashish minbari vazifasini o'tagan.

“Sadoi Turkiston” gazetasi jamoatchilik e'tiborini qaratgan mavzulardan biri onalar savodxonligi masalasidir. Jumladan, gazetaning “Xotun qizlarimizga bir

⁷ “Садои Туркистон”. (Тошкент 1914-1915- йил)

⁸ “Садои Туркистон”. (Тошкент 1914-1915- йил)

⁹ “Садои Туркистон”. (Тошкент 1914-1915- йил)

nazar”¹⁰ sarlavhali maqolasida shunday yoziladi: “Yosh bolalarimizning ibtidoiy tarbiyalari onalar qo‘lida o‘ldig‘indan onalar bo‘ladurg‘on qizlarimizni o‘qitmoq, onalar uchun xususiy maktablar solmoq, muallima va murabbiyalar va tarbiya af‘oliga oshino bo‘lgan onalar yetishturmak masalasi birinchi darajada muhim masalalardandur”. Bu masala o‘sha davrda ziyolilarimizni o‘ylantirgan muammolardan biri edi.

Jadid ta‘limi hamda matbuotning maqsadi: – o‘quvchilarga ilm-fan, ijtimoiy va axloqiy bilimlarni berish bilan birga, ularni erkin fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish edi. Jadid maktablari, shuningdek, milliy uyg‘onish, mustaqillik g‘oyalari va madaniy rivojlanishning poydevori bo‘lib xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Jadid ma‘rifatparvarlarining o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir pedagogik qarashlari”** deb nomlangan. Ushbu bobda jadid ma‘rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning tarbiyaviy ahamiyati, jadid ma‘rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari, jadid ma‘rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogik fikrlar taraqqiyoti xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Mazkur bobning “Jadid ma‘rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning tarbiyaviy ahamiyati” nomli paragrafida jadid maktablardagi o‘qitish tizimining qiyosiy tahlili bayon etilgan. XX asr boshlarida yaratilgan darsliklardan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Kitobat-ul atfol” (“Bolalar uchun kitob”), Munavvar Qori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy”, Sadriddin Ayniyning “Tahzib-us sibyon”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Qiroat”, “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, Muhammadjon Ibn Rahimjonning “Odobli bola”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni”, “Adabiyot yoki milliy she‘rlar”, Isoqxon Ibratning “Jome‘-ul hutut”, Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”, Saidahmad Siddiqiyning “Aynul adab” (“Odob ko‘zi”), “Ganjinayi hikmat” (“Hikmat xazinasi”), Abduqodir Shakuriyning “Rahnamoi savod” (“Savod chiqarish yo‘llari”), “Jome‘ ul hikoyat” (“Hikoyatlar to‘plami”), Ismatulla Rahmatullayevning “Alifbe ta‘limi”, Nizomiddin bin Mulla Husaynning “Ilmi axloq” kabi asarlar yangi usul maktablarida keng qo‘llanilgan. Bu darsliklarni nafaqat kichik yoshdagi o‘quvchilar, balki ularning opa-akalari va hatto ota-onalari ham sevib o‘qigan.

Tadqiqotimizning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, jadid ma‘rifatparvarlari tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarida o‘qitish jarayonini quyidagi yo‘nalishlarda olib borilganligi aniqlandi: vatanparvarlik, do‘stlik, o‘rtoqlik, rostgo‘ylik, ustoz, ota-ona va qavmu qarindoshlarga hurmat, ilmu ma‘rifatga da‘vat, sabr qanoat, saxovat, mehnatsevarlik kabi xislatlarni rivojlantirishga e‘tibor qaratilgan. Ular asosan milliy va zamonaviy ta‘lim g‘oyalarini o‘z ichiga olgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval

¹⁰ “Садои Туркистон”. (Тошкент 1914-1915- йил)

Jadid ma’rifatparvarlarining yangi usul maktablarida foydalanilgan darsliklar

№	O‘quv yili	Foydalanilgan darsliklar
1	Birinchi o‘quv yili	Saidrasul Said Azizovning “Ustodi avval” alifbo darsligi; Ali Asqar Bayramali Kalinning “Muallimi soniy” o‘qish kitobi; Munavvarqorining “Adibi avval” darsligi.
2	Ikkinchi o‘quv yili	Abdulla Avloniyning “Ikkinchi muallim” o‘qish kitobi; Hakimzoda Niyoziyning “Qiroat”, “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”; Muhammadjon Ibn Rahimjonning “Odobli bola”. Munavvar Qorining “Adibi soniy” darsligi.
3	Uchinchi o‘quv yili	Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘lining “Nasoyih ul-atfol” (“Bolalarga nasihatlar”) kitobi; Isoqxon Ibratning “Jome’ul hutut”; Saidahmad Siddiqiyning “Aynul adab” (“Odob ko‘zi”).
4	To‘rtinchi o‘quv yili	Mulla Ahmadxo‘ja Eshonning “Nasoyih ul atfol” kitobi; A. Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” o‘qish kitobi; Munavvarqorining “Adibi soniy” darsligi.
5	Beshinchi o‘quv yili	Abdulla Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” to‘plamining uchinchi va to‘rtinchi juz’lari o‘qitilgan; Kamiy, Tavallo, Sidqiy, Miskin, Fikriy, Hamzalarning she’rlari o‘qitilgan.

Bobning ikkinchi paragrafi “Jadid ma’rifatparvarlarining yangi usul maktablarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari”ga bag‘ishlangan.

Jadid ma’rifatparvarlarining o‘quv-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvi o‘quvchilarga bilimni yetkazishdan ko‘ra, ularni mustaqil fikrlashga, o‘zgarishlarga moslashish va yangiliklarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Yangi usul maktablarida o‘qitish jarayoni o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga yo‘naltirilgan amaliy mashqlarga e’tibor qaratilgan. “Usuli jadid” maktablarining paydo bo‘lishi bilan eski o‘qitish usullarini tubdan yangilash, yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish va shu metodlar asosida darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarini yaratish jadid pedagogikasining eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Yangi usul maktablarining yagona o‘quv reja, dasturi va darsliklari bo‘lmagan, muallimlar o‘zi tanlab olgan kitoblarni ishlatishgan.

Jadid ma’rifatparvarlari yangi usul maktablari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlab, nashr ettirgan. Munavvar Qori o‘z maktabi uchun “Adibi soniy” darsligini nashr ettirgan. Ushbu darslik “usuli jadid” maktablarining ikkinchi sinflari uchun mo‘ljallangan o‘qish kitobi edi. Muallif bu kitobning muqaddimasida shunday yozadi: “Bu asar yosh bolalarning savodini ochmoq, ularni ma’rifat va odobga o‘rgatmoq uchun tuzildi. Darslik sodda tilda yozilib, o‘quvchilarning tushunishiga qulay bo‘lishi maqsad qilingan.” “Adibi soniy” darsligi o‘z davrida

juda katta tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyat kasb etgan. Mazkur darslik 1907-1916-yillar oralig'ida besh marta nashr qilingan. "Darslik ikki yo'nalishda o'qitilgan.

1. Axloqiy darslar.

2. Fanniy darslar.

Axloqiy darslar – o'quvchilarga odob-axloq, milliy qadriyatlar, halollik, sabr-toqat va ilmga intilish ruhini singdirishga xizmat qilgan. Fanniy darslar esa geografiya, tabiat, tarix va boshqa sohalaridan sodda, tushunarli ma'lumotlar berishga qaratilgan bo'lib, bolalarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy jadid maktablari tarmog'ini kengaytirish, ular uchun o'quv dastur va darsliklar yaratish, o'quvchilarni o'quv qurollari bilan ta'minlash, kutubxonalar tashkil etish bilan shug'ullangan. 1904-1909-yillarda u o'zbek va tojik tillarida "Risolayi asbobi savod" (1905), "Risolayi jug'rofiyayi umroniy" (1905), "Risolayi jug'rofiyayi Rusi" (1905), "Kitobatul-atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi darsliklarini yaratgan. Behbudiy darsliklari milliy pedagogikamiz tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Behbudiy "usuli savtiya" metodida faoliyat ko'rsata boshlagan maktablar uchun alifbo darsliklarini yaratgan.


Samarqandlik Abduqodir Shakuriy o'z maktabida Behbudiyning "Risolayi asbobi savod" darsligidan foydalangan. 3 oy davomida yangi o'qitish usuli asosida o'spirin yigitlarni o'qish va yozishga o'rgatgan.

A.Avloniy yaratgan darsliklari esa "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Maktab gulistoni" suhbat usuli asosida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish, ularni badiiy so'zlashuv va ifodali o'qishga o'rgatishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Bu majmualarda turli xil o'qish shakllari — deklamatsiya (yakka holda ifodali o'qish), xor bo'lib o'qish, rollarga bo'lib o'qish kabi metodik usullar qo'llangan bo'lib, ular bolalarning nutq madaniyatini, estetik didini va sahnaviy mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Yangi usul maktablarida o'qitishning asosiy tamoyillaridan biri o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, bilimlarni qo'llash, xulosalar chiqarish, ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mazkur o'qitish tizimi o'quvchilarga muammo yoki masalani turli nuqtayi nazardan tahlil qilish va xulosa chiqarish imkoniyatini berish, ularning intellektual rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Jadid maktablari o'qitish tizimida o'rganilgan materiallarni boshqa bilimlar bilan bog'lash va amaliyotda qo'llash, o'z fikrini bayon etish imkoniyati berilgan. Yangi usul maktablarida fanlararo yondashuv tashkil etilgan bo'lib, matematika, geografiya, tarix va adabiyot kabi fanlarni bir-biriga bog'lab o'qitish joriy etilgan. Chunonchi, o'quvchilar o'ziga xos o'quv materiallari asosida ularning qobiliyatini rivojlantirish ko'zda tutilgan. Shundan kelib chiqib, ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish o'quvchilarning ilmiy tafakkurini, mustaqil fikrlashini, jamiyatda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam bergan.

